



Mavzu:  
Odil Yoqubovning “Ulug’bek  
xazinasi” romani.  
**Adabiyot**

O‘qituvchi: Abdukadirova M.M.





# Reja:

- 1. Adib asarlari ro'yxatini tuzish.**
- 2. Odil Yoqubov hayoti va ijodi.**
- 3. “Ulug’bek xazinasi” romanini o’qish**



# Odil Yoqubov






# Odil Yoqubov hayoti va ijodi. "Ulug‘bek xazinasi" romani



**Odil Yoqubov Qozog‘iston Respublikasi Chimkent viloyati Turkiston tumanining Qarnoq qishlog‘ida xizmatchi oilasida 1926 yili tug‘ildi. 1944 yilda o‘rta maktabni tugatib, 1945—1950 yillarda Qizil Armiya safida xizmat qildi. Yosh askar sovet-yapon urushi muhorabalarida ishtirok etadi.**

**1951—1956 yillarda u O‘rta Osiyo Davlat dorilfununining filologiya fakultetida o‘qiydi. 1955—1959 yillarda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasida maslahatchi, «Literaturnaya gazeta»ning (1959—1963, 1967—1970) respublikamizdagi maxsus muxbiri, «O‘zbekfilm» kinostudiyasida va Respublika kinematografiya qo‘mitasida bosh muharrir, G‘afur G‘ulom nashriyotida boshmuharrir (1970—1982) o‘rinbosari bo‘lib ishladi. So‘ngra «O‘zbekiston adabiyoti va san’ati» ro‘znomasining (1982—1989) bosh muharriri bo‘lib xizmat etdi. Hozirgi davrda u O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining faxriy raisidir. Odil Yoqubovning birinchi yirik asari — «Tengdoshlar» povesti 1951 yilda bosilib chiqdi.**





- 1951-56-yillar. SAGUNing filologiya fakultetida ta'lim oladi.
- 1951-yil. Birinchi asari "Tengdoshlar" qissasini yozadi.
- 1953-yil. "dastlabki qadam" hikoyalar to'plamini nashr ettiradi.
- 1955-59-yillar. O'zbekiston yozuvchilar uyushmasida adabiy maslahatchi.
- 1955-yil. "ikki muhabbat", "Chin muhabbat", hikoyalar to'plami, "Tozaxon" komediyasini yaratadi.
- 1957-yil. "Yurak yonmog'i kerak" pyessasini yozadi.
- 1958-yil. "AytSAM tilim kuyadi, aytmasam dilim" pyessasi, "Pyessalar" kitobi chop ettiriladi.
- 1959-63-yillar. "Literaturnaya gazeta"da maxsus muxbir.
- 1960-yil. "Muqadas" qissasini yozadi.
- 1961-yil. "Tilla uzuk" qissasi chiqadi. "Olma gullaganda" pyessasi yaratildi.
- 1962-yil. "Larza" qissasini yozadi.
- 1966-67-yillar. "O'zbekfilm"da bosh muharrir.
- 1963-yil. "Bir feleton qissasi", "Ayamajuz" qissalarini yozadi.
- 1966-yil. "Er boshiga ish tushsa" romani yaratilgan.
- 1967-70-yillar. "Literaturnaya gazeta"da maxsus muxbir.
- 1968-yil. "Qanot juft bo'ladi" qissasi yozildi.



1970-82-yillar. G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida bosh muharrir o'rinxbosari.  
"O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi bosh muharriri.

1970-71-yillar. "Matluba" va "Izlayman" qissalari yozildi.

1973-yil. "Ulug'bek xazinasi" romani yozildi, unga Respublika Davlat mukofoti berildi.

1975-yil. "Billur qandillar" qissasi yaratildi.

1977-yil. "Diyonat" romani yozildi.

1982-yil. "Qo'hna dunyo" romani yozildi.

1987-yil. "Oq qushlar, oppoq qushlar" romani yaratildi.

1988-1992-yillar. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi.

1992-yil. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamashunoslik qo'mitasi raisi.

1996-yil. "Adolat manzili" romani yozildi. "Dilbarim" va "Bahor yomg'irlari" kinosenariylari muallifi.



O'zbekiston xalq yozuvchisi (1985) Odil Yoqubov  
Mehnat Qizil Bayroq ordeni hamda Yaponiyaustidan  
qozonilgan g'alaba uchun medali bilan taqdirlangan.



TIIAME


«Ulug'bek xazinasi» romani uchun Hamza nomidagi Respublika  
Davlat mukofotiga sazovor bo'lgan.

Odil Yoqubov 1994 yilda "Do'stlik"  
ordeni bilan mukofotlangan.

Odil Yoqubov 1998 yilda esa  
"El-yurt hurmati" ordeni bilan  
mukofotlangan.

**«Chin muhabbat», «Aytsam tilim, aytmamasam dilim kuyadi» (1958) kabi komediyalari Hamza nomidagi o‘zbek akademik drama teatri sahnasida qo‘yildi.**


1956 yilda «Ikki muhabbat» nomli nasriy asarlar to‘plami nashr etildi. Keyin birin-ketin «Bir feleton» qissasi (1961), «Muqaddas» (1963), «Sanot juft bo‘ladi» (1969), «Billur qandillar» (1975) kabi qissalari chop qilindi. Odil Yoqubovning «Er boshiga ish tushsa» (1969) nomli romani Ulug‘ Vatan urushi yillardagi voqelikni aks ettiradi. «Qanot juft bo‘ladi» (1969) povesti vrachlar, me’morlar, ishchilar mavzui bilan birga murakkab ijtimoiy va axloqiy muammolarni hal etishga bag‘ishlangan. Muallif unda ravshan, esda qoluvchi obrazlar yaratgan. «Izlayman» povestida 1945 yil yapon militarizmiga qarshi kurash voqealari aks ettiriladi. U ma’lum ma’noda avtobiografik asar hamdir. Chunki, muallifning o‘zi o’sha voqealarning jonli guvohi.





**Yozuvchi keyingi yillarda yaratilgan «Ulug‘bek xazinasi» romanida (1974) ulug‘ o‘zbek astronomi Ulug‘bek va uning o‘g‘li Abdullatif o‘rtasidagi ziddiyatlarni ko‘rsatib, progressiv va reaktsion kuchlar orasidagi kurashlarni tasvirlaydi. Romanda Ulug‘bekning iste’dodli shogirdi, mashhur olim Ali Qushchining ham ulug‘vor obrazi yaratilgan.**

Boshqa bir yirik asari — «Ko‘hna dunyo» romanida O’rta Osiyoning ikki buyuk allomasi Beruniy va Ibn Sino hayoti va fojeali taqdiri qalamga olinadi. Ularning jahon ilmi-fani taraqqiyotiga qo‘shtigan buyuk hissalarini umumlashtirishga intiladi. Shuningdek, Odil Yoqubov zamonaviy mavzularda ham «Diyonat» (1973), “Oqqushlar, oppoq qushlar” (1988) kabi yirik polotnolar yaratdi. Agar yozuvchi o‘zining «Diyonat» romanidaadolatning nohaqlik, tubanlik ustidan g‘olib kelishini ko‘rsatsa, «Oqqushlar», oppoq qushlar» romanida esa turg‘unlik davri illatlarini, ildizi va oqibatlarini ro‘yrost gavdalantirib beradi. Har ikki holda ham zamondoshlarimizni ma’naviy, axloqiy pokizalikka da’vat etadi.



**Odil Yoqubov respublikamiz teatrlarida namoyish qilingan «Aytsam tilim kuyadi, aytmasam dilim» (1956), «Yurak yonmog‘i kerak» (1957), «Olma gullaganda» (1960) va boshqa p’esalarning muallifidir. U mohir tarjimon, munaqqid, publitsist sifatida ham barakali ijod qilib kelmoqda.**

**O’zbekiston xalq yozuvchisi (1985) Odil Yoqubov Mehnat Qizil Bayroq ordeni hamda Yaponiya ustidan qozonilgan g‘alaba uchun medali bilan taqdirlangan. «Ulug’bek xazinasi» romani uchun Hamza nomidagi Respublika Davlat mukofotiga sazovor bo‘lgan. Ijodkor, muharrir, nosir, Yozuvchilar uyushmasi bosh kotibi vazifalarida xizmat qilib keldi. Shu kunlarda Odil Yoqubov O’zbekiston Vazirlar mahkamasi qoshidagi respublika Atamalar komitetiga rahbarlik qilmoqda.**





# Odil Yoqubovning hikoya to'plamlari



“Dastlabki qadam” (1953)

“Ikki muhabbat” (1955)

“Tilla uzuk” (1961, qissa va hikoyalar to'plami)



“Bir felyeton  
qissasi”

“Tilla uzuk”

“Muqaddas”

## **Odil Yoqubov qissalari**

“Billur qandillar”

“Qanot juft  
bo'ladi”

“Izlayman”



**"Muzaffar Temur"**  
(1996)

**"Yurak yonmog'I  
kerak"** (1958)

**"Chin muhabbat "**  
(1955)

## **Odil Yoqubov pyesalari**

**"Olma gullaganda"**  
(1961)

**"Aytsam tilim,  
aytmasam dilim  
kuyadi"** (1958)

**"Bir koshona sirlari"**  
(2000)



## Odil Yoqubov romanlari



TIIAME

“Er boshiga ish tushsa”

«Ulug‘bek xazinasi»

“Ko’hma dunyo”


“Adolat manzili”

“Diyonat”




“Oqqushlar, oppoq qushlar”




## Odil Yoqubov asarlar



TIAAME








## «Ulug‘bek xazinasi» romani haqida



TIIAME



Odil Yoqubovga eng katta shuhrat keltirgan asar «Ulug‘bek xazinasi» romani bo‘ldi. Davrimizning ulkan adibi Chingiz Aytmatov bu asar muallifiga yo‘llagan maktubida roman to‘g‘risida shunday yozadi: «Yaxshi kitob haqida gapirish maroqli. Bu - yuksak va oljanob nasr namunasi. Badiiy quvvati jihatidan salmoqdor bu tarixiy roman meni larzaga soldi...».



# Mirzo Ulug'bek

Mirzo Ulug'bek o'n beshinchi asming avlod, Amir Temurning sevimli nabirasi va Shohruux Mirzoning o'g'li, asl ismi Muhammad Tarag'aydir. Yoshligidan uni "Ulug'bek" deb atashgan va yosh shahzoda keyinchalik mashhur bo'lgan. Xatsavod, diniy va dunyoviy ilmlarning asoslari yosh Muhammad Tarag'ayga begona emas edi. U Buyuk Yulduz bilimdoni va riyoziydon bo'lgan, Qur'on Karimni yoddan bilgan. Ulug'bekning onasi Gavharshod begim ham, Temur Saroyida ham o'z qahramonining buyuk qizi Saroymulk xonim tarbiyasiga topshirilgan. 3-4 yoshlaridayoq shayx Orif Ozariy uni murabbiy qilib tayinlanadi. U yoshligi ko'pincha O'rta Sharq va Hindistonda o'tkazildi. Amir Temur o'limidan keyin Samarcand, ya'ni Qo'shgoriy Mahmudga ko'ra Samarcandda joylashigan. Keyinchalik Otasi Shohruux Mirzo Xirotni boshliqni o'z davlati deb atadi, Ulug'bekning o'n olti yoshida Samarcandda 1409 yilda, 1411 yilda esa Movarounnahr xonliklarining erkin hukumdori bo'lgan.



U o‘zining qariyb 40 yillik hukmdorligi davrida Movarounnahrning bir necha shaharlarida madrasalar, masjidlar, kutubxonalar, ariq va yo’llar qurdirdi. Bugunga qadar saqlanib qolgan ayrim tarixiy obidalar va ilmiy meros namunalari Ulug‘bek davrida ilm, madaniyat ravnaqi yuqoriligidan guvohlik berib turibdi. 1420 yili o‘z faoliyatini boshlagan Mirzo Ulug‘bek madrasasida, G‘iyosiddin Jamshid Koshiy ta’biri bilan aytganda, «...olimlarning dunyo bo‘yicha o‘z ilmining ustolaridan 7odan ortig‘i...» talabalarga o‘nlab dunyoviy fanlardan dars bergenlar va o‘z ilmining amaliyotlarini rasadxonada tekshirib ko‘rganlar. Bu Ulug‘bekning Samarqanddagi haqiqiy universiteti, akademiyasi bo‘lib, bugungi kundagi ko‘pgina oliy ta’lim muassasalarining, jumladan, Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universitetining tarixi bilan mushtarakdir.



# Uyga vazifa:

1. Adib ijodini o'qish, o'rganish.
2. Mavzu yuzasidan 15 ta yopiq test savollari tuzish.